

O'ZBEK SHEVALARIDA QARINDOSHLIK ATAMALARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Boboqulova Nilufar Bobir qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Gumanitar fanlar fakulteti magistratura

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi I-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18441702>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o'zbek shevalarida qarindoshlik atamalarining lingvokulturologik tahlili haqida fikr va mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, olimlarning shevashunoslik sohasidagi olib borayotgan faoliyatiga to'xtalib o'tilgan. Maqolada qarluq, qipchoq, o'g'uz shevalarda qo'llaniluvchi so'zlar va ularning sinonimlari haqida mulohazalar mavjud.

KALIT SO'ZLAR: Dialektologiya, lahja, eronlashgan sheva, fonetik hodisa, dialektologik atlas, adabiy til, tayanch dialekt.

Bugungi kunda o'zbek dialektologiyasi sohasini tubdan rivojlantirish, uning rivojlanish bosqichlarini takomillashtirish yuzasidan qator ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbek dialektologiyasining asosini qarluq, qipchoq, o'g'uz lahjalari tashkil etadi. Ushbu lahjalarda qo'llanilayotgan so'zlarning ilmiy-amaliy va uslubiy yo'nalishlarda o'ziga xosligini aniqlash, muloqotga joriy etish ahamiyatlidir. Bu borada muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish..."¹ borasidagi fikrlari o'z ona tilini sevgan, hurmat qilgan har qanday insonni harakatga undaydi.

O'zbek tilida shevalarning uchta lahja asosida jamlanishi Y.D.Polivanov ilmiy faoliyati bilan bog'liq. Shuningdek, o'zbek dialektologiyasida qarindoshlikni ifodalovchi so'zlarning lingvokulturologik poetikada ifodalanishi G'ozzi Olim Yunusov nomi bilan bog'liq. O'zbek tilining izohli lug'atida keltirilgan qarindoshlikni bildiruvchi so'zlar tarkibiga quyidagilar kiradi. Shevashunoslar tomonidan ular ham tiplashtiriladi. Yaqin qarindoshlik aloqalariga doir ota, ona, aka, uka, opa, singil, bobo va boshqalar. O'rta yaqin qarindoshlik darajasiga ko'ra xola, amma, tog'a, kelinoyi, quda va boshqalar. Uzoq qarindoshlik munosabatiga oid so'zlar esa jiyan, amakivachcha, xolavachcha va boshqalar keltirilgan. Ushbu so'zlar o'zbek adabiy tilining meyorlashtirilgan, qolipga solingan so'zlaridir. Qarindoshlikka oid ushbu so'zlarning lahjalarda va hududiy qismlarda qo'llanilishiga doir sinonimlarni tahlil qilamiz. Uslubiy jihatdan me'yorlashtirilgan va adabiy til shaklining formasiga solingan so'z bu "ona" so'zi hisoblanadi. Uning "valida", "validai muhtarama", "aya", "ena", "nana", "ana" kabi ko'rinishlari mavjud. Chig'atoy lahjasiga kiruvchi hududlar: Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo'qon, Chortoq, Shimoliy o'zbek shaharlari, Chimkent, Turkiston, Shimoliy o'zbek qishloqlari va boshqalarda qo'llanilishiga ko'ra farqlanadi. Misol uchun: Farg'ona, Qo'qon, Samarqand hududlarida "aya" so'zi adabiy meyor sifatida qaraladi. Toshkent, Chortoq, shimoliy o'zbek qishloqlarida "ona" so'zining ekvivalenti sifatida "oyi" so'zi kuzatiladi. Ushbu so'zning Namangan versiyasi esa "aba" deb ataladi. Qipchoq lahjasiga oid hududlarda bu so'z farqli nomlanadi. Xorazmning qipchoq shevalari, shimoliy xorazm, o'rta xorazm va boshqa hududlarda "opa", "opo" shakllari mavjud. Sirdaryo hududi bu lahja guruhidan alohida bo'lsada ona so'zining "opa" shaklida

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзligимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли "Ўзбекистон овози", 2019 йил 22 октябрь.

qo'llanilishi kuzatiladi. "M.Saidovanning nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tili va uning shevalarida amal qilayotgan rang-barang va juda qadimiy tarixga ega bo'lgan, ammo hali sof lingvistik jihatdan tadqiq qilinmagan qarindoshlik terminologiyasining qiyosiy-tarixiy genezisini Namangan shevalarida o'rganilgan"².

Shevashunos olam G'ozi Olim Yunusov o'zbek shevalarini o'zbek-qipchoq, turkbarlos, xiva-urganch lahjalarga ajratadi. Buxoro viloyatining ayrim hududlarida ona so'zining ekvivalenti sifatida "nana" so'zi qo'llaniladi. Qarindoshlik so'zlarini turli shevalarda qo'llanilishiga ko'ra ularning bir xususiyatini unutmashimiz lozim. O'zbek xalqi turli xil millat va elatlardan tashkil topgan. Shuning uchun ham o'troq yashaydigan aholi turli xil etnik tarkibga ega. Ayni ushbu asosga tayansak, turkcha qarindoshlik so'zlari, qozoq-qiriz-qoraqalpoqcha qarindoshlik so'zlari, samarqand va buxoroda tojik tiliga xos qarindoshlik so'zlari, qoraqalpoq-turkman tiliga xos qarindoshlik so'zlari va boshqalar ham uchraydi. Navbatdagi so'zga e'tibor qaratamiz. "Tog'a" so'zi onaning akasi, ukasi ma'nolarida qo'llaniladi. O'g'uz lahjalari qo'llaniladigan hududlar - Janubiy Xorazm, Qoraqalpog'iston hududida, shuningdek, Toshkent shahrida o'rtoqlashgan Turklar tilida "dayi" so'zi tog'a so'zining muqobili sifatida qo'llaniladi. Tojiklashgan hududlar, vodiy aholisining bir qismi, Samarqand, Buxoroda esa "tag'o", "tag'oyi", "tog'a" kabi ekvivalenti mavjud.

Qarluq lahjasida gaplashadigan hududlar sifatida Xorazm, Farg'ona, Surxondaryo va Qashqadaryo hududlari ham kiradi. Ushbu hududlarda tojik tili, qadimgi turkiy unsurlari ham ma'lum bir qism sifatida uchraydi. Bunga sabab Surxondaryo tarix jihatidan Afg'on va Tojik shevalariga xos bir hudud sifatida qaralgan. Termiz, Denov, Sherobod, Sariosiyo kabi hududlarda "y" o'rniga "j" harfi, "q" o'rniga "x" harflari qo'llaniladi. "Qayd qilish kerakki, keying davrdagi yangi ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda shevalarga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga o'zgard va bu ma'naviy boylikni keng o'rganishga yo'l ochildi. Dialektologiyaning sohalari. Tasviriy dialektologiya. Har bir tildagi shevalarining muayyan davrdagi holatini o'rganuvchi fan tasviriy dialektologiya deb yuritiladi. O'zbek dialektologiyasi hozir tasviriy dialektologiya bosqichidadir"³.

Kelinoyi so'zi Toshkent, Sirdaryo, Jizzax va boshqa hududlarida qo'llaniladi. Adabiy til unsuri sifatida qaralishiga qaramay uning shevalarda ekvivalentlari mavjud. Surxondaryo dialektikasida bu so'zning "checha" varianti mavjud. Ushbu so'z ham muqobili anglatni kabi aka yoki ukaning ayoli ma'nolarini ifodalaydi. Uslubiy jihatdan ushbu so'z ham adabiy til me'yorlarga yaqin hisoblanadi. Buxoro, samarqand va tojiklashgan shevalarda gaplashuvchi aholi o'rtasida kelinoyi so'zining muqobil varianti sifatida "yanga" so'zi olingan. Y harfiga oid gapiruvchilar tilida "yanga", j harfiga urg'u berib gapiruvchilar tilida ushbu so'z "janga" shaklida qo'llaniladi. Qoraqalpoq shevalarida esa ushbu so'zning muqobili sifatida "kishi" so'zi qo'llaniladi. Turklashgan hududlarda esa "yenge" variantlari mavjud. Ushbu so'zning Toshkent, Sirdaryo shahrida ham bir necha ko'rinish shakllari mavjud. Misol uchun: "Kelinoyi", "kenayi", "kennoyi" va boshqalar. Farzandning farzandi ma'nosida qo'llaniluvchi nabira so'zi umum uslubdagi so'z sifatida adabiy tilga kiritilgan. Qoraqalpog'iston va qozoqlashgan hududlarida bu so'zning "atliq", ko'rinishi, Toshkent shahri, Samarqand, va vodiy hududlarida "Navara", "Nevara", "Nabira". Misol uchun: Tojik shevalarida "U nabirai man ast" jumalari o'zbek tilida

² Saidova M. Namangan o'zbek shevalaridagi uda, jiyan terminlarining etimologiyasi va leksik-semantik xususiyatlari. Cyberleninka. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. -B.156

³ Ashirboyev Samixon "O'zbek dialektologiyasi". "Nodirabegim" nashriyoti. Toshkent - 2021

“bu mening nabiram” deya tarjima etiladi. Yuqorida keltirilgan fikrlar mavzuning xulosaviyligini tashkil etib, har bir hududning o‘ziga xos sheva unsurlari bor eknaligini yana bir bor isbotlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли “Ўзбекистон овози”, 2019 йил 22 октябрь.
2. Saidova M. Namangan o‘zbek shevalaridagi uda, jiyan terminlarining etimologiyasi va leksik-semantik xususiyatlari. Cyberleninka. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. -B.156
3. Ashirboyev Samixon “O‘zbek dialektologiyasi”. “Nodirabegim” nashriyoti. Toshkent - 2021